

## 3-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari

**N.O.Safarova,**

**Buxoro davlat pedagogika instituti professori.**

**Y.M.Ostanaqulova**

**Buxoro davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 3-sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari va ular nima maqsadda berilgani haqida so‘z yuritiladi

**Kalit so‘zlar:** maqol, topishmoq, rivoyat, xalq og‘zaki ijodi, boshlang‘ich sinf

Boshlang‘ich ta‘lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko‘lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta‘lim olishini ta‘minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan barcha fanlar, ularning bo‘limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e‘tibor bilan tanlanadi. O‘quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o‘sib borishini ta‘minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo‘lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o‘tiladi. Mana shu jarayonda xalq og‘zaki ijodi namunalari ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalq og‘zaki ijodiga, xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so‘zlar, afsona va rivoyatlar, kiradi. Boshlang‘ich sinf darsliklarida asosan maqol, topishmoq va rivoyatlar ko‘proq keltirilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivoyatlar, qo‘shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko‘proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi.

Maqol bu xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari,



jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

**Maqol** tarbiyaviy ahamiyatga ega. U oʻquvchilarni tarbiyalaydi.

**Topishmoq** narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki oʻquvchining ixtiyoriga qoldiradigan oʻyin boʻlib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita aytib beradi

Topishmoq esa oʻquvchilarning aqliy faoliyatini oʻstirishga yordam beradi.

**3-sinf 1-qism** oʻqish savodxonligi darsligidagi xalq ogʻzaki ijodi namulari:

- Tilingni botir qilma, oʻzingni botir qil. (maqol)
- Nomard yovga yalinar, mard kuchiga suyanar (maqol)
- Onaning koʻngli bolada, bolaning koʻngli dalada (maqol)
- Ikki otim bor, bir-biridan chopagʻon. (Oyoqlar)
- Oʻquvchi toʻplar, Oʻqituvchi sochar. Dangasa esa topolmay qochar. (Bilim)
- Likopchanning akasi, oilaning kattasi. Palovtoʻra joy olgan uning nomidir... (Lagan)

### 3-sinf 2-qism

- Yaxshiga aytsang bilar, Yomonga aytsang kular. (maqol)
- Kamtarga kamol, manmanga zavol. (maqol)
- Yaxshi-el gʻamida, Yomon-oʻz gʻamida. (maqol)
- Yoʻlni kesib oʻtishda yordam berar yoʻl-yoʻl chiziq. (Peshoxot)
- Ustma-ust uchta chiroq, Koʻzlariga sergak boq. Harakatni kuzatar, Xatolarni tuzatar. (Svetafor)
- Turli rang-u shaklda, turadi yoʻl chetida. Tartib qoida mujassam, sodiq doʻstdir har joyda. (Yoʻl belgilari)
- Urdim gup etdi, yer tagiga kirib ketdi. (Ketmon)
- Tishlagan yerini uzar. (Ombur)
- Ogʻzi yoʻq, tishi koʻp. (taroq)
- Bir koʻzli kampir, koʻylakka gul tikar. (igna)

### 3-sinf 3-qism

- "Tabiat zanjiri" rivoyati



- "Bog‘bon va nihol" rivoyati
- Har mevaning po‘chog‘i bor, har so‘zning o‘lchovi bor
  - Suvga tupurma, suvsiz qolasan. (maqol)
  - Har kim o‘z yerini gulzor qilsa, butun olam gulga burkanadi. (maqol)

### 3-sinf 4-qism

- "Merosga kim munosib?" rivoyati
- "Mehr urug‘i" rivoyati
- "Aql va davlat" ertagi
- "Orol" rivoyati
- Til bilan tugulgan tugun tish bilan yechilmas. (maqol)
- Chiroyli maqtovdan, xunuk haqiqat yaxshi. (maqol)
- Rost so‘zni ayt, yolg‘on so‘zdan qayt. (maqol)
- Gur-gur etar, uchar ketar, Yurtdan yurtga odam eltar. (samalyot)
- Cho‘zilib yotar narvon, undan o‘tar uy-karvon. (poyezd)
- Tog‘dan kelar toshlar kabi, Egarlangan otlar kabi. (suv)
- Uzun-uzun iz ketdi, Uzun bo‘yli qiz ketdi. (ariq)
- O‘yib oldim, izi yo‘q. (daryo)
- Qozonda emas qaynaydi, Qishin-yozin tinmaydi. (buloq)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 3-sinf darsligida umumiy 34 ta xalq og‘zaki ijodi namulari bor ekan. Bulardan eng ko‘pi maqol va topishmoqlar so‘ngra rivoyatlar. Maqollarning berilganidan maqsad, uni o‘qib, yodlagan o‘quvchi o‘ziga albatta tarbiyaviy xulosa oladi. Masalan: "Rost so‘zni ayt, yolg‘on so‘zdan qayt" maqolida o‘quvchilar faqat rostgo‘y bo‘lish, yolg‘on gapirmaslik kerakligini bilib olishadi. "Kamtarga kamol, manmanga zavol" maqolidan esa kamtar inson doim kamol topishi, rivojlanishi, doim maqtovlar, yaxshi so‘zlar eshitishi, manman inson esa hechqachon kamol topmasligi balki zavol topishi, doim uyatga qolishini bilib oladilar. Va o‘quvchilarga manman emas, balki kamtar inson bo‘lishlari uqtiriladi.

Topishmoqlar esa yuqorida aytganimizdek o‘quvchilarning aqlini charxlashga yordam beradi. Ular berilgan ta’riflar orqali topishmoq javobini topishga harakat qilishadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 3-sinf o‘qish savodxonligi 1-qism. "Novda" nashriyoti-2023
2. 3-sinf o‘qish savodxonligi 2-qism. "Novda" nashriyoti-2023
3. 3-sinf o‘qish savodxonligi 3-qism. "Novda" nashriyoti-2023
4. 3-sinf o‘qish savodxonligi 4-qism. "Novda" nashriyoti-2023
5. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. NDA. T., 2005
6. Safarova N.O. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi. "O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 30 noyabr 2022 y.



---

# Research Science and Innovation House